



EOC
EUROASIAN
ONLINE
CONFERENCES

SPAIN CONFERENCE

**INTERNATIONAL CONFERENCE ON
SUPPORT OF MODERN SCIENCE AND
INNOVATION**



Google Scholar

zenodo

OpenAIRE

doi digital object identifier

eoconf.com - from 2024



INTERNATIONAL CONFERENCE ON SUPPORT OF MODERN SCIENCE AND INNOVATION: a collection scientific works of the International scientific conference – Madrid, Spain, 2026, Issue 6.

Languages of publication: Uzbek, English, Russian, German, Italian, Spanish,

The collection consists of scientific research of scientists, graduate students and students who took part in the International Scientific online conference «**INTERNATIONAL CONFERENCE ON SUPPORT OF MOERN SCIENCE AND INNOVATION**». Which took place in Spain, 2026.

Conference proceedings are recommended for scientists and teachers in higher education establishments. They can be used in education, including the process of post - graduate teaching, preparation for obtain bachelors' and masters' degrees. The review of all articles was accomplished by experts, materials are according to authors copyright. The authors are responsible for content, researches results and errors.





B.Qosimovning jadidshunoslikka doir tadqiqotlaridagi yetakchi xususiyatlar

KUAF O‘zbek va rus filologiyasi kafedrasida

Katta o‘qituvchisi filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (Phd)

Bektasheva Gulbahor Rayimjonovna

gulbahorbektasheva764@gmail.com

Kalit so‘zlar: jadidchilik, fikriy uyg‘onish, teatr, yangi adabiyot, milliy g‘oya

Keywords: neoliberalism, intellectual revival, theater, new literature, national idea

Ключевые слова: неолиберализм, интеллектуальное возрождение, театр, новая литература, национальная идея

Annotatsiya: Ushbu tezisdagi jadidshunos olim Begali Qosimovning jadidshunoslikka oid qarashlari, 40 yillik faoliyatini o‘zbek jadid adabiyotini o‘rganishga qaratgani haqidagi fikrlar bayon qilingan, olimning jadidlar haqidagi fikrlari tahlil va talqin etilgan.

Abstract: This thesis presents the views of Jadid scholar Begali Kasimov on Jadid studies, his 40-year career devoted to the study of Uzbek Jadid literature, and analyzes and interprets the scholar's views on Jadids.

Аннотация: В данной работе представлены взгляды исследователя джадидов Бегали Касимова на изучение джадидов, его 40-летняя карьера, посвященная изучению узбекской джадидской литературы, а также анализируются и интерпретируются взгляды исследователя на джадидов.

Har bir olimning nuqtai nazaridagi o‘ziga xoslik uning tadqiqot obyektiga munosabatida namoyon bo‘ladi. Shu sababli ham muayyan bir hodisa to‘g‘risida turli odamlar tomonidan turlicha fikrlar bildiriladi. Jadid adabiyoti namunalariga munosabat borasida ham ayni jihat ko‘zga tashlanadi. Ayrimlar ularda millatchini ko‘radi, kimdir ularga ma‘rifatchi sifatida yondashadi, kim uchun esa jadidlar milliy ozodlik jangchilari hisoblanadi. To‘g‘ri, mavjud vaziyat tadqiqotchiga hamisha ham ko‘rganini ko‘rganday ifodalash imkonini beravermaydi. Lekin chinakam olim ana shunday qaltis vaziyatda ham haqiqatni qay darajadadir ifodalashga harakat qiladi. Begali Qosimov ana shu toifaga mansub olimlardan edi.

B.Qosimovning jadidshunoslik borasidagi faoliyatining o‘ziga xosligi to‘g‘risida taniqli adabiyotshunos O.Sharafiddinov: “B.Qosimovning salkam 40 yillik ijodiy faoliyati davomida jadidchilikni o‘rganish borasidagi ishlari mazkur yo‘nalish bo‘yicha umumlashma xulosalar beradi hamda kelgusi ishlar miqyosi va yo‘nalishlarini belgilaydi. Qolaversa, bu boy ilmiy meros milliy istiqloq mafkurasini shakllantirayotgan bir paytimizda juda katta ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi”³, – deb yozgan edi. Ko‘rinadiki, mashhur olim B.Qosimovning

³Qosimov B. Milliy uyғoniш: жасорат, маърифат, фидоийлик. – Тошкент: Маънавият, 2002. – Б. 3.

qarashlari faqat o'z tadqiqot obyektlari uchungina emas, balki shu yo'nalishdagi boshqa ilmiy izlanishlarga asos bo'lishi bilan birga o'zbek milliy mafkurasini shakllantirilishida ham ish beradigan ilmiy to'xtamlar ekanini ta'kidlaydi.

Olim B.Qosimov tadqiqotlarida jadidchilikning asosi xalq hamda yurt nimaligini anglashdan ularning manfaati yo'lida kurashishgacha bo'lgan jarayondan iborat ekanini, bu harakat millatni tarbiyalab, uni uyg'otishga xizmat qilganini manbalar asosida ko'rsatib beradi. Milliy matbuotning paydo bo'lishi, maktab-maorifning faoliyati, teatr va yangi adabiyotning shakllanishi, yangicha tafakkurning maydonga kelishi – bularning hammasi millatning o'zligini anglashga ta'sir qilganiga urg'u beradi. B.Qosimov “jadid” atamasiga to'xtalar ekan, bu so'z o'zida “yangi tafakkur, yangi inson, yangi avlod” singari ma'nolarni mujassam etganini qayd etadi. Turkiy dunyodagi fikriy uyg'onishni ma'rifatchilar faoliyati va Ismoilbek Gaspirali ochgan yangi maktab nomi bilan bog'laydi⁴.

Shu o'rinda jadid istilohiga munaqqid tomonidan berilgan ta'rifga to'xtalinadigan bo'lsa, millatni asl islomiy qadriyatlardan uzmagan holda modernistik o'zgarishlar, fan-texnika yutuqlari bilan munosabatga kirisha oladigan yangicha tafakkur bilan tarbiyalash orqaligina “yangi inson”ni, “yangi avlod”ni vujudga keltirish mumkinligiga urg'u bergani kuzatiladi. Ushbu ta'rifda jadidlarning ezgu g'oya va maqsadlari yorqin aks etgan. Unda Turkistonning hurriyatga erishuvi va jahon davlatlari orasida o'z o'rniga ega bo'lishi uchun qilinishi kerak bo'lgan eng to'g'ri ishlar qamrab olingan edi.

Begali Qosimov jadidchilikni ko'lamli ijtimoiy-siyosiy, ma'rifiy harakat sifatida talqin qiladi. Turkistondagi jadidchilik g'oyalari sekin-asta jamiyatning barcha qatlamlariga kirib borgan. Olimning qayd etishicha, Turkiyada “jadid” istilohi birgina adabiyot yo'nalishiga ishlatilgan. Shuningdek, o'sha davrlardagi turli manbalarda “Rusiya jadidchiligi”, “Buxoro jadidchiligi”, “Turkiston jadidchiligi” degan atamalar uchraydi, lekin bularning mazmun-mohiyati bitta – yangilanish ekanini olim o'z ishlarida isbotlab beradi. B.Qosimov Usmonli turklar imperiyasida bo'lib o'tgan siyosiy va madaniy o'zgarishlarni chuqur tadqiq etar ekan, aslida jadidchilik bu yerda ham faqatgina adabiyot bilan chegaralanib qolmay, jamiyat hayotining turli jabhalarida bo'y ko'rsatganini yozadi. Jumladan, olim 1839-yilda Mustafa Rashit Posho tomonidan yozilgan “Gulxonai xatti Humoyun” va bevosita u bilan aloqador holda boshlangan “Tanzimot” harakati aslida jadidchilik ekanini qayd etadi.

B.Qosimov o'z ilmiy ishlarida islomiy dunyo miqyosida bosh ko'targan jadidlar turli hududlar nomidan kelib chiqqan holda “Yosh turklar”, “Yosh eronliklar”, “Yosh afg'onlar”, “Yosh buxoroliklar”, “Yosh xivaliklar”, “Yosh turkistonliklar” kabi har xil nomlar bilan atalganligini qayd etadi. Ular o'z oldilariga qo'ygan maqsadlari, jamiyat va davlat qurilishi borasidagi dasturiy

⁴Қосимов Б. Миллий уйғониш: жасорат, маърифат, фидоийлик. – Тошкент: Маънавият, 2002. – Б. 5.

qarashlariga kora liberallar, konservatorlar va hatto radikallar singlarlarga bo'linganini ham ta'kidlaydi. Masalan, Buxoro va Xiva xonligi kabi Rossiya protektoratiga aylangan davlatlarda jadidlarning ikkita asosiy guruhga bo'linib, ularning bir qismi xon va amir hokimiyatini saqlab qolgan holda davlat qurilishi va jamiyat hayotida zaruriy o'zgarishlarni amalga oshirish tarafdorlari bo'lishsa, ikkinchi guruh vakillari esa, xon va amir hokimiyatini butkul ag'darib tashlash tarafdorlari edi. Xiva xonligida bosh vazir – Islomxo'ja boshliq o'ng oqim tarafdorlari bo'lmish jadidlar o'z atrofida xonlikdagi savdo-sanoat korxonalari va yirik boylarning vakillarini birlashtirib, qo'ng'irotlar sulolasini saqlab qolgan holda ijtimoiy islohotlar o'tkazilishini maqsad qilgan bo'lsa; qozikalon Boboovun Salimov boshliq so'l oqim esa, sarmoyadorlar, savdogarlar va hunarmandlarning bir qismini o'z atrofida jipslashtirib, xonlikka butunlay barham berish, yangi usul maktablarini butun xonlik bo'ylab muntazam yo'lga qo'yish, iqtisodiy, siyosiy va madaniy hayotni tubdan yangilashni o'zlari uchun dasturiy maqsad sifatida belgilab olgan edilar. Ular xon hokimiyati saqlanib qolar ekan, mamlakatda keng ko'lamlil islohotlarni amalga oshirib bo'lmaydi, deb hisoblar edilar. B.Qosimov tadqiqotlarida mana shu jihatlarni hisobga olgan holda jadidlarni quyidagi uch guruhga ajratib tasniflaydi:

1. Chor va Sovet Rossiyasiga tobelikka qurolli yo'l bilan butkul barham berish va shu orqali mustaqillikni qo'lga kiritish (Dukchi eshon qo'zg'oloni, 1916-yil mardikorlik harakati, "bosmachilik" kabi qo'zg'olon va xalq harakatlarini qo'llab quvvatlovchilar).

2. Murosa yo'li. Ruslar yordamida ma'rifatga erishish. Ma'rifat masalasida haq-huquq olish, milliy xususiyatlarni tiklash.(I.Gaspirali, M.Behbudiy).

3. Hamkorlik yo'li. Chor ma'murlari, so'ng esa sho'ro hukumati bilan birga ularning dasturlarida qatnashish va imkon bo'lishi bilan mustaqillikni qo'lga olish. Buning uchun ma'lum tayyorgarlikni ko'rib borish. (Munavvarqori, Hamza, Avloniy)⁵.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, olim jadidlar o'rtasidagi turlicha yo'nalishlarning vujudga kelishiga chor Rossiyasi va uning vorisi bo'lgan SSSRning harbiy tazyiqi kabi tashqi omil bilan bir qatorda ichki omillar ham sabab bo'lganini ko'rsatadi. Chunonchi, Abdurauf Fitrat, Usmonxo'ja, Fayzulla Xo'jayev kabi jadidlarning bolsheviklar partiyasi tarafini olishi va uning manfaatidan kelib chiqib amirlik hududida amalga oshirgan namoyish va xalq qo'zg'olonlari kabi harakatlari amirlik hokimiyatining qarshiligiga, mahalliy aholi katta qismi ongida esa ularga bosqinchilarining tarafdorlari ekan, degan qarash shakllanishlariga olib kelganini olim manbalarga tayanib, asoslaydi.

⁵ Қосимов Б. Миллий уйғониш: жасорат, маърифат, фидоийлик. –Тошкент: Маънавият, 2002. – Б. 8.



Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Қосимов Б. Миллий уйғониш: жасорат, маърифат, фидойлик. –Тошкент: Маънавият, 2002. – Б. 8.
2. Qosimov B. O‘zbek adabiyoti va adabiy aloqalari tarixi. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2008. – 600 b.
3. Qosimov B. Uyg‘ongan millat ma’rifati. – Toshkent: Ma’naviyat, 2011.
4. Quronov D. Adabiyotshunoslikka kirish. – Toshkent: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2004. – 177 b.

